

SARGON II DAVRIDA: OSSURIYA IMPERIYASI

Ziyotov Zayniddin Abdusattor o'g'li

mirzo ulug'bek nomidagi o'zbekiston milliy universiteti

Tarix fakulteti Tarix(mamlakatlar va yo'nalishlar) 2-kurs talabasi

E-mail :ZAYNIDDINZIYOTOV@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada miloddan avvalgi VIII asrda hukmronlik qilgan Ossuriya imperatori Sargon II haqida ma'lumot beriladi. Maqolada uning hayoti, harbiy g'alabalari, siyosiy va madaniy islohotlari, merosi tahlil etiladi. Shuningdek, uning davrida amalga oshirilgan islohotlar va madaniy rivojlanish ham muhokama qilinadi. Maqola Sargon II ning Ossuriya tarixidagi ahamiyatini va uning keyingi avlodlarga ta'sirini ko'rsatadi, shu bilan birga, uning merosining bugungi kunda ham qanday o'rganilayotganligi yoritadi.

Kalit so'zlar: Turtan, otliq, zirh, Dur-Sharrukin, razvedka, xalta, otliq, Rusa, armiya, otliq arava, dengiz armiyasi, gegemon, Salmanasar V, Misr, arxitektura, Mutsatsir, kamon, savdo-sotiq, strategiya, hiyla, Suriya, Xaldey, Falastin, piyoda askarlar, Bobil.

Аннотация:

В этой статье рассказывается об ассирийском императоре саргоне II, правившем в VIII веке до нашей эры. В статье анализируется его жизнь, военные победы, политические и культурные реформы, наследие. Также обсуждаются реформы и культурное развитие, проведенные в его время. Статья показывает значение Саргона II в ассирийской истории и его влияние на последующие поколения, а также проливает свет на то, как его наследие все еще изучается сегодня.

Ключевые слова: Туртан, конница, доспехи, Дур-Шаррукин, разведка, сумка, конница, Руса, армия, колесница, флот, гегемон, Салмансар V, Египет, архитектура, Муцацир, лук, торговля, стратегия, хитрость, Сирия, Халдея, Палестина, пехота, Вавилон.

Abstract:

This article details the Assyrian Emperor Sargon II, who ruled in the 8th century BC. The article analyzes his life, military victories, political and cultural reforms, heritage. Reforms and cultural development undertaken during his tenure are also discussed. The article shows the importance of Sargon II in Assyrian history and its influence on later generations, while illuminating how his legacy is still being studied today.

Keywords: Turtan, cavalry, armor, Dur-Sharrukin, intelligence, bag, cavalry, Rusa, army, chariot, navy, hegemon, Shalmaneser V, Egypt, architecture, Mutsatsir, bow, trade, strategy, trick, Syria, Chaldea, Palestine, infantry, Babylon.

Kirish: Sargon II — Ossuriya imperiyasining mashhur hukmdorlaridan biri bo'lib, u miloddan avvalgi 722-705 yillarda hukm surgan. U o'zining harbiy muvaffaqiyatlari, siyosiy islohotlari va madaniy merosi bilan tanilgan. Uning davrida juda katta islohotlar amalga oshirilib, shaharlar ham barpo etiladi. Sargon II davlat xavsizligini ta'minlash va qo'shni hududlarda muvaffaqiyatli urishlar olib borish uchun armiyani isloh qiladi va uning tarkibini yangi bo'linmalar bilan to'ldiradi. Dur-Sharrukin (Sargon) shahrini ham aynan shu maqsadda barpo etadi. Bu shaharda bir vaqtning o'zida yirik armiya va dengiz kemalari to'plana olishi mumkin edi. Sargonning bu kabi islohotlari davlat qudratini oshirish va Yaqin Sharq mintaqasida Ossuriyani gegemon davlatga aylantirish uchun amalga oshirilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Sargon II tarixiga oid juda ko'plab adabiyotlar, monografiyalar va ilmiy maqolalar yozilgan. Bugungi kunda ham uning tarixiga oid adabiyotlar yozilishda davom etmoqda. Masalan Michael Roaf "The Assyrian Empire" asarida Ossuriyaning tarixi, shu jumladan Sargon II ning davrini batafsil yoritgan. T. C. Mitchell esa „The Assyrian“ kitobida Sargon II ning hukmronligi va uning ta'siri haqida batafsil ma'lumotlar mavjud. Yana bir olim A. Leo Oppenheim o'zining „The Assyrian Kings: A History of Assyria“ asarida Ossuriyaning shohlarining tarixini, Sargon II hamda uning yutuqlarini yoritadi.

Tadqiqot metodologiyasi: Sargon II ga oid arxeologik yodgorliklar orasida uning shahri bo'lgan Dur-Sharrukin alohida ajralib turadi. Dur-Sharrukin (Xorsobod) ni o'rgangan eng mashhur arxeologlardan biri **Max Mallowan** hisoblanadi. U 1928-1935 yillarda bu joyda qazishmalar olib borgan va Sargon II ning poytaxti sifatidagi ahamiyatini o'rganish uchun ko'plab muhim topilmalarni keltirib chiqardi. Aynan shu yerdagi tadqiqotlarda Ossuriya armiyasiga tegishli juda ko'plab qurollar va Sargon II oid moddiy manbalar topilgan. Bugungi kunda ham Sargon II shaxsiyatini o'rganish va bu hududda arxeologik izlanishlarni olib borish davom etmoqda.

Tahlil va natijalar: Salmanasar V hukmronligi davrida Ossuriya imperiyasi ancha mustahkam ko'rinda boshladi. Ammo Salmanasar V o'zining mutlaq hukmronligidan hatto ruhoniylarga ta'sir o'tkazishda ham foydalanmoqchi bo'ladi. Bu esa hukmdor va ruhoniylar o'rtasida nizo chiqishiga sabab bo'ladi. Natijada ichki fitna tufayli Salmanasar V taxdan ag'darilib uning o'rniga Sargon II o'tiradi[1]. Bu hukmdor Tiglapalasar III ning kenja og'li bo'lib ba'zi manbalarda nikohdan tashqari tug'ulgan farzand sifatida ham qaraladi. Sargon II taxtga chiqqan vaqtda davlat sarhadlari tinch emas edi. Birinchidan shimoldan Urartu tahdid sola boshladi. Ikkinchidan Suriya va Falastinda vaziyat yana ham og'irlashib bu yerda

Ossuriyaga qarshi ittifoq tuziladi. Uchunchidan esa Bobilni Xaldey qabilasi boshlig'i Marduk-apla-iddin II egallab oldi va o'zini shoh deb e'lon qildi. Sargon II qudratli imperiya hukmdori sifatida shoshilinch choralar ko'rish kerak edi[2]. Sargon II akasi qilgan xatolarni takrorlamasligi uchun ibodatxonalarining avvalgi imtiyozini qaytaradi. Shu yo'l orqali u barcha ruhoniylarni o'z tarafida turishiga erishadi. Sargon ichki xavfsizlikni ta'minlagandan so'ng qo'shni hududlarga ham hujum qila boshlaydi. Bobilda taxtni egallab olgan Marduk-apla-iddin II ga qarshi 720-yilda qilingan yurish muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Bu mag'lubiyatdan so'ng o'zini tezda o'nglab olgan Sargon II Suriya va Falastinda g'alabaga erishib, shu hududdan Misr chegaralarigacha yetib keladi. Mamlakat shimolida jiddiy xavf solib turgan Urartu hukmdori Rusaga qarshi jangga kirish aniq bo'lib qolgach Sargon II bir hiyla ishlatadi. U Urartu davlatiga emas balki sharqqa qarab harakatlanadi. Bu vaqtda esa Rusa Ossuriya qo'shinini ta'qib qila boshlaydi. Sargon II o'z armiyasida razvedkachilarga a'lohida e'tibor bera boshlaganligi mana shu yerda ish beradi. Razvedkachilar orqali Sargon II Rusaning barcha rejalaridan bahraman bo'lib turadi. Sargon II o'z qo'shinlarini olib birdan g'arb tomonga burilib Rusaning qo'shinlarini kutib oladi. Urartu qo'shini birdan har tarafga tarqalib mag'lubiyatga uchraydi. Rusa esa zo'rg'a jang maydonidan qochib qoladi[3]. Keyin Ossuriya qo'shini deyarli hech qanday qarshilikka duch kelmay, Urartu va unga bo'ysunuvchi kichik podshohliklarni, xususan, Urartu xazinasi joylashgan Mutsatsirni vayron va talon-taroj qiladi. Son-sanoqsiz boyliklar ossuriyaliklar qo'liga o'tdi va Urartu bu qirg'indan hech qachon qutula olmadi va "buyuk kuch" sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi[4].

Bu g'alabalardan so'ng Sargon II o'z hokimiyatini mintaqada mustahkamlab oldi. Endi bor e'tiborini savdo-sotiq va mamlakat obodonchiligi yo'lidagi tadbirlarga qaratgan Sargon II o'z hokimiyati mintaqada mustahkamlab oldi. Sargon II mamlakat poytaxtini Dur-Sharrukin (Sargon shahri) ga ko'chiradi. Shahar qurilishining e'tiborli jihati shunda ediki bu shahar Ossuriya hukmdori tomonidan qurilgan dastlabki shahar edi. Shahar arxitekturasini Sargonning o'zi tomonidan ishlab chiqilgan. Shahar 2 qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi mil.avv 707-yilda qurilgan va asosan ibodatxona joylashgan. Ikkinchi qismi mil.avv 706-yilda qurilgan bo'lib bu yerda ma'muriyat va hukmdor saroyi joylashgan[5].

Sargonning II Ossuriya hukmdori sifatida qilgan ishlari orasida armiyani qayta tashkil qilishi a'lohida ajralib turadi. Birinchi navbatda qo'shin zaruriy qurollar bilan ta'minlab turish va qo'shin yig'ilishi uchun markaz vazifasini bajaruvchi shahar Dur-Sharrukinni qurdiradi. Shaharda bir vaqtning o'zida 200 tonnagacha qurol va zirh tayyorlab armiyaga yetkazib bergan. Bu esa armiyaning jangovor qobiliyatini oshirgan. Uning armiyasi 4 ta asosiy qismga bo'lingan[6].

- 1.Otliqlar
2. Aravachilar
3. Piyoda askarlar

4. Kamonchilar

Bu bo'linish unga armiyani jang maydonida to'g'ri boshqara olish va jangni nazorat qilishga imkon yaratgan. Uning davrida keng armiya bo'ylab yangi texnologiyalar ham joriy qilish boshlangan. Shu vaqtga qadar Ossuriyaliklarning eng zaif jihati hisoblangan, daryodan kechib o'tish masalasi aynan Sargon II davrida o'z yechimini topgan. Uning armiyasi daryo o'zanida xaltalarni havo bilan to'ldirib, havo chiqib ketmasligi uchun esa xalta og'zini arqon bilan bog'laydilar. Natijada askarlar bu xaltalar bilan daryodan oson kechib o'tgan. Shuningdek armiyada Turtanlik (armiyaning eng katta harbiy unvoni) lavozimi qayta tashkil etilib, oldin faqat 1 kishidan iborat lavozim 2 kishidan iborat harbiy apparaturaga aylantiriladi. Jang maydonida ular o'ng va chap qanotni boshqargan[7]. O'ng qanotni boshqarayotgan Turtan chap qanotni boshqarayotgan Turtanga bo'ysungan. Bu lavozim egalarining asosiy vazifasi podshoh aytgan vaqtda armiyani viloyatlardan to'plash, ularning moddiy ta'minoti va jangga tayyorgarligini nazorat qilishdan iborat bo'lgan[8]. Agar shaxsan podsho jangga qatnasha olmay qolsa armiyani jangga olib kirish ham bu lavozim egalariga topshirilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak armiyaning barcha tashkiliy ishlari Turtanlar qo'l ostida bo'lgan. Sargon II hukmromligi davrida armiyaning kamonchilar guruhi ham o'z cho'qqisiga yetgan. Kamonchilar uchun maxsus kamon va o'q yasaliş orqali bu guruhning jangovor qobiliyati oshirilgan. Bu kamonlar orqali 650 metr masofadagi dushmanni o'qqa tutish mumkin bo'lgan[9]. O'sha davr uchun bu kamon o'qlari har qanday zirhni teshib o'tib dushmanga jiddiy xavf tug'dira olgan dahshatli kuch sifatida jangga chiqqan. Sargon II davrida armiya har jihatdan yuksalgan va dushmanga qo'rquv sola olgan. Ammo har jihatdan kuchli bo'lmasin bu armiyaning ham zaif jihatlari bo'lgan. Masalan armiya himoyalanişda juda zaif bo'lgan. Sargon II ishlab chiqqan jang uslubi asosan hujumga qaratilgani bois, bu yerda ularning dahshatli aravalari ham uzoq masofada qo'rqinchli bo'lgan kamonchilari ham mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolgan. Bu esa yaxshi tayyorgarlik ko'rgan dushmanga qo'l kelgan[10].

Xulosa: Bir vaqtning o'zida ham armiyani ham davlat iqtisodiyotini yuksak darajaga olib chiqqan Sargon II Ossuriya tarixida o'chmas iz qoldirdi. Yaqin sharqning turli mintaqalarida tartib va osoyishtalikni ta'minlab, savdo yo'llarini o'z qo'liga olgan Sargon II davrida, Ossuriyada iqtisod va savdo yaxshi rivojlanib bu orqali Sargon II o'zining muhtasham shahrini ham barpo eta olgan. Bu shaharga asosan bosib olingan o'ljalar, savdo karvonlari, qurol yarog'lar tez-tez kelib turganligi sababli savdo-sotiq yaxshi rivojlangan. Sargon II aqlli va dono shaxs hisoblangan. Uning harbiy strategiyalari o'zgaruvchan edi, masalan o'z kuchlarini tezkor harakatlarga moslashtirgan va janglarda samara beruvchi taktikalar qo'llagan. Uning armiyasi kuchli, tartibli va strategik jihatdan samarali bo'lib, Sargon II davrida Ossuriya muvaffaqiyatlarida muhim ro'l o'ynagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avdiyev. V.A Qadimgi sharq tarixi. Toshkent: «O'rta va oliy maktab» nashriyoti. 1964. 490 bet.
2. Dawson. D. The First Armies: London «Casell&Co» 2001. P 188.
3. Rigg. H. A. Sargon's Military Campaign. New York: «Jaos» 1962. P 130.
4. Littaur M. Wheeled Vehicles and Ridden Animals in the Ancicent Near East. Kyonl: 1979. P 80.
5. Мочалов М. Ю. Ассирийская Держава. От города-государства-к импери. Москва: «Вече» 2015. С 136.
6. Кузищин В.И. История древнего востока. Москва: «Высшая школа» 1988. С 145.
7. Smith S. Early history of Assyria to 1000 B.C New York. 1928. P 450.
8. Olmstead A. History of Assyria. New York. 1923. P 387.
9. Kabirov A. Qadimgi sharq tarixi. Toshkent:- «Tafakkur» nashriyoti, 2016. 155. bet
10. Rajabov R. Jahon tarixi. :Toshkent- «Yangi asr» nashriyoti, 2015. 160 bet.

